

11. Yormatov G'. YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. - T.: 2005.

Elektron resurslar

1. www.bilim.uz.
2. www.ziyo.edu.uz
3. www.mchs.gov.uz
4. www.google.uz.

9.3. Qo'shimcha axborot manbalari

1. HPX fanini yanada chuqurroq o'zlashtirish maqsadida bir necha informatsion-uslubiy qo'llanmalar mavjud, jumladan.
2. Fan mavzulari yoritilgan 4-toifadagi animatsion materiallar.
3. Fanga oid ishlab chiqilgan ma'ruzalar matni elektron versiyasi.
4. Fan mavzulariga oid informatsion-tarqatma materiallar.
5. Fan asosiy adabiyotining elektron versiyasi.


PO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 134

2022 yil 28 08



“HAYOT FAOLIVATI XAVFSIZLIGI” fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	100000	-	Gumanitar
	300000	-	Ishlab chiqarish texnik
	600000	-	Xizmatlar
Ta'lim sohasi	110000	-	Pedagogika
	150000	-	San'at
	130000	-	Muxandislik ishi
	320000	-	Ishlab chiqarish texnologiyasi
	610000	-	Xizmat ko'rsatish
	620000	-	Transport
	630000	-	Atrof muhit muhofazasi
Ta'lim yo'nalishi	-	-	Sohadagi barcha ta'lim yunalishlari

Jami o'quv soati: 124			
Shu jumladan	Jami	7-semestr	8-semestr
Ma'ruza	36	36	-
Amaliy mashg'ulotlar	36	36	-
Laboratoriya			
Mustaqil ta'lim soati	52	52	-

Qarshi-2022

Fanning ishchi o'quv dasturi, ishchi o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: O.D.Raximov – QMII, “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedra professori

N.Z.Mamatov – QMII, “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedra o'qituvchisi

Fanning ishchi o'quv dasturi “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedra yig'ilishida (bayon № 1 16.04.2022 y.), “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 1 27.02.2022 y.) va Institut Uslubiy Kengashida (bayon № 1 29.03.2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jamiyatida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy Kengash raisi:

Ekologiya va mehnat muhofazasi kafedra mudiri:

Ah. Turdiyev

M. O'qilov

R. Eshonqulov

KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlar ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF №4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi” qabul qilinishining to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida urg'u qo'yilgan bo'lib, ta'lim sohasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishni ustuvor vazifa etib belgilangan.

Hozirgi davrda butun jahonda texnika va texnologiya, qishloq xo'jaligi va koinotni o'rganish tez sur'atlar bilan o'shishi, tabiiy resurslar, o'simlik va hayvonat olamidan pala-partish foydalanish va yovvoyi tabiatni o'zlashtirish natijasida tabiiy, biologik, texnologik, ekologik va boshqa ko'pgina xavflar vujudga kelmoqda. Bu holat esa inson hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash muammolari yanada keskinlashmoqda. Shu sababli ham “Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi ustuvor yo'nalishida:

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofoniga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish masalalari alohida band bilan belgilab qo'yildi.

Fan, texnika, ta'lim sohasi, ishlab chiqarishda texnologiya qanchalik rivojlanmasin inson xavf-xatardan 100% kafolatlangan emas. Chunki insonning barcha faoliyati va atrof muhit komponentlarining xavfli va zararli omillari, har bir faoliyat natijadan keyin yangi yashirin xavf paydo bo'lishi tabiiy holdir.

Hayot faoliyatini ta'minlash muammosini hal etish - odamlarni meyoriy sharoitda faoliyat olib borishi, uni o'rnatgan atrof muhitdagi ruxsat etilgan meyoridan ortiq xavfli va zararli omillardan himoya qilish, optimal mehnat faoliyat, dam olish sharoiti yaratish va ishlab chiqarishda yuqori ish samaradorlikka erishishdan iboratdir.

Hayot faoliyati xavfsizligining eng asosiy formulasi – bu yashirin (potensial) xavflar haqida ogohlantirish va oldini olishdan iborat.

Ishlab chiqarishda barcha sohalarida ishlayotgan zamonaviy mutaxassislar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash maqsadida, atrof muhitda bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni aniglash, tushinish, oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada bilim saviyasiga ega bo'lishi lozim. Aynan ushbu bilimni «Hayot faoliyati xavfsizligi» fani o'rganadi.

Ushbu “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan ishchi dastur fan bo'yicha davlat ta'lim standart va namunaviy dastur asosida tuzilib “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti)” ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Unda fanning maqsad va vazifalari talabalar bilim va ko'nikmasiga bo'lgan talablar, mashg'ulotlarning mavzusi va qisqacha mazmuni, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur texnik vositalar mustaqil ish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlar royxati keltirilgan.

I Fanning oliy ta'limdagi o'rni hamda maqsadi va vazifalari

1.1. Fanning dolzarbligi

Hayot faoliyati xavfsizligi insonning hayotida sodir bo'ladigan turli ko'rinishdagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalash yo'llarini o'rganishga qaratiladigan nazariy fandir. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi.

Insonning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda, ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitariy texnik meyorlar hamda ularni o'rganish bo'yicha uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Fan o'qitilishining maqsadi — bo'lajak mutaxassislariga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnologik, ekologik va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari: hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikatsiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarning oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalash usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajarish oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Hayot faoliyati xavfsizligini o'qish natijasida bo'lajak mutaxassislar quyidagi bilim va malakaga ega bo'lishlari fanning asosiy vazifalari sanaladi

a) *Tasavvurga ega bo'lishlari kerak:*

O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan tabiiy, texnologik va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarining umumiy tavsiflari;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlardan keladigan talofatlarni kamaytirish va oqibatlarini bartaraf etish;

ishchi-xizmatchilar va aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash;

shaxsiy himoya vositalarining turlari va ularidan foydalanish.

ishlab chiqarishda ishchilarga xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish;

baxtsiz hodisalarni sabab va oqibatlari haqida tasavvurga ega bo'lish;

ishlab chiqarish sanitariyasi asoslari haqida tasavvurga ega bo'lish;

b) *Talabalar bilishlari kerak:*

favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni muhofazalash sohasida qabul qilingan qonun xujjatlari va boshqa hujjatlarining asosiy talablarini;

favqulodda vaziyatlarda rahbar xodim va fuqarolarni muhofazalash sohasidagi huquq va burchlari;

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini (FVDT);

aholini favqulodda vaziyatlardan muhofazalashga tayyorlash tartibini;

o'quv muassasalari obyektlarida va hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni;

favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda harakat qilish, shu jumladan muassasaning harakat rejasi va o'zaro hamkorlik rejasi boyicha harakat qilish qoidalarini tartiblarini;

favqulodda vaziyatlarda ma'naviy-rubiy barqarorlikni ta'minlash masalalari;

favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish usullarini;

favqulodda vaziyatlarda o'z-o'ziga va o'zaro tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini va tartibini;

fuqaro muhofazasi ogohlantirish signallarini;

radiatsion, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka, dozimetrik nazorat asboblari bilan foydalanish tartibi va qoidalarini;

jamoat va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalarini va tartibini.

v) *Talabalar bajarishlari lozim:*

jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsata olishni;

favqulodda vaziyat xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda harakat qilishni, shu jumladan o'quv muassasasining harakat va o'zaro hamkorlik rejalarini asosida harakat qilishni;

jamoat va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanishni;

radiatsion, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka va dozimetrik nazorat asboblari bilan ishlashni;

kimyoviy paket va shaxsiy dori qutisidan foydalanishni;

fuqaro muhofazasi normativlarini tez va qat'iylik bilan bajarishni;

tuzilmalar tarkibida harakat qilishni.

1.2 HFX fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani "Me'nat muhofazasi", "Muhandislik psixologiyasi", "Psixofiziologiya", "Ergonomika", "Texnikaviy estetika", "Atrof muhit himoyasi va ekologiya", "Favqulodda holatlar va fuqarolar muhofazasi" kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bilan birga tadqiqot qiladi va o'rganadi. Lekin, insonning hayot faoliyatida barcha turdagi bog'lanishlar bir vaqtda yuzaga keladi va shu sababli inson o'z faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi, o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli insonning hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli faktorlarning inson sog'ligiga va mehnat qobiliyatiga birgalikda ta'sirini alohida mustaqil fan — "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'rganadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'rganish nafaqat texnosferada xavflar tug'ilganda, balki ishlab chiqarish jarayonida ishlovchilarni kasb kasalligiga chalinishlarini qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish shuningdek, biosferada (atrof-muhitda) yuz beradigan favqulodda vaziyatlarda insonlar o'limi va moddiy zararlar miqyosini kamaytirish imkonini beradi.

II. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturi interfaol usullarda o'zlashtirishni taqozo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda obyekтив jarayonlar va hodisalar nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

muammoli mavzular bo'yicha;

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Power Point" prezentatsiya va "Excel" elektron jadval dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ulubiy ko'rsamalar ko'rinishidagi tarqatma materiallar tayyorlanadi, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

2.1. "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani boyicha 5410700- Yer kadastri va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishida soatlarning taqsimlanishi

Umumiy o'quv soati	124 soat
Shu jumladan:	
Ma'ruza	36 soat
Amaliy mashg'ulotlar	36 soat
Laboratoriya	
Mustaqil ta'lim	52 soat

III. "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi

T/R	Mavzu, bo'lim nomi	Saat
1	Kirish. «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari.	2
2	Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish.	2
3	Faoliyat xavfsizligini ta'minlash tamoyillari va vositalari.	2
4	HFXning ergonomic va psixologik asoslari.	2
5	Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari.	2
6	Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar sabablarini tahlil qilish.	2
7	Ishlab chiqarish jarayonlari sanitarivasi va gigiyenasi.	2
8	Ishlab chiqarish sanitarivasi va gigiyenasi meyorlari.	2
9	Ishlab chiqarishning sanitarivasi va gigiyena ko'rsatkichlari va inson organizmiga ta'siri	2
10	Ishlab chiqarishda elektrxavfsizlik asoslari.	2
11		2
12	Favqulodda vaziyatlarda fuqarolar muhofazasi.	2
13	Kuzatiladigan tabiiy o'fotlar va ularning oqibatlari.	2
14	Terrorizm va aholi muhofazasi.	2
15	Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish uslublari va vositalari, ularning xususiyatlari.	2
16	Yong'in xavfsizligi.	2
17		2

mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha; ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha; oldinga siljigan ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan; mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalar o'qish, elektron plakatlari va internet tarmog'idan foydalaniladi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitish jarayonida quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyli, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini o'chishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlarni yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini ijodiy tarzda qo'llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlaniradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyatini ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash-yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

18	Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari.	2
	Jami	36

Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soat
1	Xavflarning xususiyatlarini va guruhlanishini o'rganish	4
2	"Inson va ishlab chiqarish" tizimini dekompozitsiyalash	4
3	Operatorming ish joyini tashkil qilishni o'rganish	4
4	Ma'lumotlarni aks ettirish vositalarini o'rganish	4
5	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish	4
6	Baxtsiz hodisalarni tahlil qilish usullari va jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash	4
7	Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar va ularni hujjatlashtirish tartiblari	4
8	Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish	4
9	Statik elektr zaryadlari xavfliligi ko'rsatkichlarini hisoblash	4
Jami:		36

V. Kurs loyihasi (ishi) namunaviy dastur rejasini boyicha mavjud emas.

HFX fani bo'yicha talaba mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, fandan amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish; ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash; prezentatsiyalar tayyorlash; ko'rgazmali vositalar tayyorlash; maqola, tezislarni tayyorlash; amaliy mazmundagi nosharlarni masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

№	Mavzuning nomi
1	Hayot faoliyati xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.
2	O'zb Respublikasining "Mehtat kodeksi"
3	Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va usullarini tahlil qilish.
4	Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish.
5	Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

6	Ish joyiga ergonomik talablar.
7	O'zb Respublikasining "Mehtatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni"
8	Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati.
9	O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tizimi.
10	Ish joyiga sanitar-gigienik talablar.
11	Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
12	Shaxsiy himoya vositalari.
13	Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar tahlili.
14	Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar tahlili.
15	Shovqin va tirashdan himoyalash texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi.
16	Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari
17	Davlat yong'in xavfsizligi xizmati.
18	Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalarining turlari
19	Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularning ko'riladigan zararlari to'g'risida statik ma'lumotlar tahlili.
20	Yong'inlardan himoyalashning zamonaviy texnik vositalari.
21	Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar.
22	O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan texnologik xavflar.
23	Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.
24	"Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun bandlemini o'rganish.
25	Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDI)ning strukturaviy tuzilishini o'rganish.
26	"Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun bandlemini o'rganish.
27	"Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun bandlemini o'rganish.
28	Ish o'rni tashkil etishning talablari.
29	Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.
30	Xavflarni kvantifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa usullarini tahlil qilish.
31	Tabiiy hamda texnologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar.

VII. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Ekologiya o'ldirish qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektron adabiyotlar, texnik jihozlar, turli slaydlar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

VIII. Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish

Talabalar bilimni nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom (Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

9.1. Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

9.1.1. Asosiy adabiyotlar

1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press, Germaniya, 2007
2. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma.-T.: TIMI - 2014.
3. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
4. O.R. Yuldashev, Sh.G. Djabborova, O.T. Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik.-T.: "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014.- 268 b.
5. Yormatov G.Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Aloqachi", 2009.- 348 b.
6. G'oyipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Yangi asr avlodi", 2007. 264 b.
7. Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi", Ma'ruza kursi. -T.: "Aloqachi" 2005.-355 b.
8. O'Yo'ldoshev va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. -T.: Mehnat, 2005.
9. Yormatov G.Yo., Isamuhamedov YO. Mehnat muhofazasi. -T.: O'zbekiston, 2002.- 384 b.

9.1.2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 48 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olibonab xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmon.
1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2008.
2. Yo'ldashev O'R., Usmonov, U., Qudratov O. Mehnatni muhofaza qilish. -T.: Mehnat, 2001.
3. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -T.: 2002., 1-son.
4. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlarni tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori №286, 06.06.1997. -T.: 1997.
5. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar va talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalarini tekshirish va hisobga olish tartibi to'g'risida NIZOM. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.-T.: 2011., 3-son, 29-madda.
6. Mehnat sharoitlarini baholash va mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlarini attestatsiya qilish usuli. Mehnat vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi ishlab chiqqan, №247, 28.05.1996. -T.: 1996.
10. Yormatov G.Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Aloqachi", 2009. - 348 b.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat - semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallanganidan keyin, talabning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" yoki "Og'zaki" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarining fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi:

Oraliq baholash (OB) - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy baholash (YAB) - semestr yakunida talabaning muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.